



Ibn Sino she'rlari jamlangan "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) asari haqida

Begimqulova Shohsanam Oriental universiteti
Sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ibn Sino ijodini o'rganar ekanmiz, uning ijodi juda keng qamrovli va serqirra ekanligiga amin bo'lamiz. Uning asarlarining aniq miqdori ma'lum emas. Ushbu ilmiy ishdan maqsad Ibn Sino devoni va undagi she'riy janrlarni o'rganish va tahlil qilish, ularning g'oyalarini yoritishdir.

Kalit so'zlar: janr, falsafiy qarashlar, bayt, sharhlar, qo'lyozma, tabobat, she'r, she'riyat.

Annotation

Studying Ibn Sino's work, we can be sure that his work is very comprehensive and multifaceted. The exact amount of his works is not known. The purpose of this scientific work is to study and analyze Ibn Sina's work and genre and to illuminate their ideas.

Key words: genre, philosophical views, the stanza, commentaries, manuscript, medicine, poem, poetry.

Аннотация

Изучая творчество Ибн Сино, мы можем убедиться, что его творчество очень обширно и многогранно. Точное количество его работ неизвестно. Целью данной научной работы является изучение и анализ творчества и жанра Ибн Сины, а также освещение их идей.

Ключевые слова: жанр, философские воззрения, строфа, комментарии, рукопись, медицина, поэма, поэзия.

Turli manbalarda Ibn Sinoning she'riy asarlari turlicha nomlar bilan saqlanib qolgan: "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni), "اشعار ابن سينا" ("Ibn Sino she'rlari") va "ديوان". Ushbu asarlarning bir necha qo'lyozmalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib kelmoqda.



She'riy asarlarning qo'lyozmalari bir-biridan nafaqat shakl jihatdan, balki ko'chirilish davri bilan ham farq qiladi. Ehtimol, shuning uchun ham hozirgi kunda tadqiq qilinayotgan she'rlarning aniq miqdori ko'rsatilmagan.

Ibn Sinoning Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazida 15303 inventar raqam ostida saqlanayotgan "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) asari toshbosma nusxasi ham bizgacha saqlangan ma'naviy merosimizning ajoyib namunalaridan biridir. Ushbu toshbosma nusxa Ibn Sino she'rlarining qo'lyozmasi asosida arab sharqshunos olimi doktor Husayn Ali Mahfuz boshchiligida 1957-yilda Iroqda nashr etilgan.¹¹⁴ Asardagi barcha she'rlar arab tilida bo'lib, ular orasida Ibn Sinoning mashhur "Qasidai Ayniyya"si ham o'rin olgan. Devonda hammasi bo'lib 183 bayt ya'ni 366 misra she'r mavjud. Bu turli janrlardagi 27ta saralangan mumtoz she'rlar namunasidir. She'rlar taxminan har 20 bayt oralig'ida [F. 41 a] – [F. 41 b], [F. 42 a] – [F. 42 b], [F. 43 a] – [F. 43 b], [F. 44 a] – [F. 44 b], [F. 45 a] shaklida taqsimlangan. Ular mavzu jihatidan ham rang-barangdir. Aynan shu bois biz tarjima va tahlil uchun mazkur devonga tayandik. Tarjimada matn asliyatining tilini va uslubini saqlab qolishga harakat qildik, faqatgina tushunish qiyin bo'lgan joylariga matn mazmunidan chiqib ketmagan holda, izoh va qo'shimchalar berishga urindik.

بسم الله الرحمن الرحيم

ديوان ابن سينا

قال الشيخ الرئيس:

صن السرّ عن كل مستخبر

و حاذر فما الحزم الآ الحزم

اسيرك سرّك ان سنته

و أنت اسير له ان ظهر¹¹⁵

Bismillahir rohmanir rohiym

Mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan

Ibn Sino devoni

¹¹⁴ Qarang: 1957 - العراق، علي محفوظ، الدكتور حسين علي محفوظ، العراق، - 1957.

¹¹⁵ ابن سينا، ديوان ابن سينا مع تحيات الدكتور حسين علي محفوظ، العراق، - 1957. ص. 21.



Shayx ur-Rais aytdi(dedi):¹¹⁶

Siringni hammaga aytish (oshkor etish)dan ehtiyot bo'lgin. Chunki mulohazali degan so'z – ehtiyotkor bo'lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u seni asiringdir, agar siring oshkora bo'lsa, sen siringning asiri bo'lib qolasan.

Ibn Sino she'rlarida yoshlarga nasihat qiladi, har bir ishda mulohaza bilan fikr yuritishni, o'ziga do'st sirdosh tanlashda ehtiyot bo'lishni uqtiradi. Ibn Sinoning bunday purma'no nasihatlariga, falsafiy qarashlarga boy she'rlari uning *اوج زحل* (Zuhal[Saturn]ning eng yuqori nuqtasi)asarida ham ko'plab keltirilgan. Shoirning ham arabiy ham forsiy she'rlarini o'zida jamlagan bu asar O'zR FA fundamental kutubxonasi 19259 inventar raqam ostida saqlanadi. Bu asar Ibn Sino she'rlari jamlangan boshqa asarlardan ko'ra mukammalroq sanaladi. Majmuaning avvalgi qismida 4 g'azal, 5 qit'a, 38 ruboiy, va 2 ta fard hammasi bo'lib 122 bayt ya'ni 244 misra fors-tojikcha she'rlar o'rin olgan.¹¹⁷ Undagi sara ruboiylar mavzu va g'oya jihatidan mukammal, shoirning teran fikrlari ularga jo bo'lgan:

از قعر گل سیاه تا اوج زحل
کردم همه مشکلات گیتی را حل
بیرون جستم ز قید هر مکر و حیل
هر بند گشاده شد مگر بند اجل¹¹⁸

Qora tuproq qa'ridan tortib to Zuhal(Saturn)ning eng baland cho'qqisigacha bo'lgan dunyoning hamma qiyin, mushkul masalalarini hal qildim. Men har qanday makr-u hiyla tuzog'idan qutulib chiqa oldim. Hamma tugunlar yechildi. Lekin birgina ajal-o'lim tugunini yecha olmadim.

Darhaqiqat, olim o'z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barchasini egallaydi. Biroq o'lim haq ekanligi, uni davolashning iloji yo'qligini alohida ta'kidlab o'tadi. Har ikki

¹¹⁶ Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, Ibn Sinoning "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) asarini turli qo'lyozmalari bo'lgan va ular boshqa-boshqa kotiblar tomonidan ko'chirilgan. She'rlarning avvalida *قال الشيخ الرئيس* ("Shayx ur-Rais aytdi(dedi)") jumlasini ishlatilishi shu boisdan deb hisoblanadi.

¹¹⁷ ابو علي ابن سينا، اوج زحل، دوشنبه، 1980، ص. 10.

¹¹⁸ 37 ص. ابو علي ابن سينا، اوج زحل، دوشنبه، عرفان، 1980، ص. 37. Ushbu kitobning «اوج زحل» deb nomlanishi ham aynan shu ruboiy bilan bog'liq deb hisoblanadi.



devondagi boshqa she'rlar tarjimasini va tahlilini, ular haqidagi batafsil ma'lumot keyingi ishlarda keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *A.Irisov* Abu Ali Ibn Sino - T.: Fan, 1980.
2. An-Naim arabcha-o'zbekcha lug'at, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – T. 2003
3. Ibn Sino ta'limoti fan taraqqiyotida VII xalqaro Ibn Sino o'qishlari. Ibn Sino ruboiylarining o'zbekcha tarjimalari. - Buxoro, 2013.
4. Abu Ali Ibn Sino. Avchi Zuhul. – Dushanbe, Irfon. 1980.
5. Abu Ali Ibn Sino. Lirikalar (tarjimonlar: Sh.Shomuhamedov, J.Kamol, A.Irisov).

